

**O‘ZBEKISTONDA TA’LIM ISLOHOTLARINING NORMATIV-
HUQUQIY ASOSLARI****MATTIYEV MUROD SHAMSIYEVICH**

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda ta’lim islohotlarining normativ-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Hozirgi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar qonunchilik va davlat dasturlari orqali tartibga solinadi. Maqolada ta’lim sohasini rivojlantirishda qonunlar, qarorlar va strategik hujjatlar rolini tahlil qilish, shuningdek ularning zamonaviy pedagogik va ijtimoiy talablarga mosligini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan. Tahlil natijalari asosida davlat va pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim islohotlari, normativ-huquqiy asoslar, qonunchilik hujjatlari, davlat ta’lim siyosati, ta’lim tizimini rivojlantirish

Аннотация. В статье анализируются нормативно-правовые основы реформы образования в Узбекистане. Реформы, проводимые в настоящее время в системе образования, регулируются законодательством и государственными программами. В статье особое внимание уделяется анализу роли законов, постановлений и стратегических документов в развитии сферы образования, а также изучению их соответствия современным педагогическим и социальным требованиям. По результатам анализа даются практические рекомендации для государства и педагогов.

Ключевые слова: реформа образования, нормативно-правовые основы, законодательные акты, государственная образовательная политика, развитие системы образования

Annotation. The article analyzes the normative and legal foundations of educational reforms in Uzbekistan. Currently, reforms in the education system are regulated through legislation and state programs. The article pays special attention to the analysis of the role of laws, decisions and strategic documents in the development of the educational sphere, as well as their compliance with modern pedagogical and social requirements. Based on the results of the analysis, practical recommendations are given for the state and educators.

Keywords: educational reform, regulatory framework, legislative acts, state education policy, development of the educational system

Kirish. O‘zbekistonda ta’lim sohasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. Soha samaradorligini ta’minlash va zamonaviy talabalarni rivojlantirish maqsadida, davlat ta’lim islohotlarini uzluksiz amalga oshirib kelmoqda. Bularning huquqiy asosi milliy qonunchilik va strategik hujjatlarda belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ular ta’lim tizimining barqarorligini va samaradorligini ta’minlaydi. Qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlar orqali amalga oshirilayotgan islohotlar pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish, ta’lim standartlarini yanada takomillashtirish va xalqaro tajribalar bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Shu bois, milliy ta’lim tizimidagi huquqiy baza va uning xalqaro standartlar bilan integratsiyasi masalalari ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu maqolada ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, ularning zamonaviy talablarga mosligi va sohadagi islohotlarning samaradorligini ta’minlashdagi ahamiyati o‘rganiladi. Shuningdek, tahlil natijalari asosida davlat va pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar taqdim etiladi, bu esa milliy ta’lim siyosati va amaliy faoliyat uchun muhim ilmiy asosni tashkil etadi.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekistonda ta’lim sohasi mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida asosiy strategik omil hisoblanadi. Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega avlodni tarbiyalash davlat va jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, bu vazifani samarali amalga oshirish uchun ta’lim islohotlarining normativ-huquqiy asoslari mustahkam bo‘lishi zarur.

Hozirgi kunda xalqaro bilim standartlari va raqobat muhiti talablari milliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishni talab qilmoqda. Shu bois, qonunchilik va strategiyalar orqali ta’lim sohasini rivojlantirish, pedagogik jarayonni muvofiqlashtirish va ta’lim sifatini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Maqola ta’lim sohasidagi huquqiy asoslarni tahlil qilib, ularning zamonaviy talablar va xalqaro tajribalar bilan uyg‘unligini ko‘rsatishga qaratilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalari davlat idoralari, pedagoglar va ta’lim muassasalari uchun amaliy tavsiyalar sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu esa milliy ta’lim siyosati va sohadagi islohotlarning samaradorligini oshirishda muhim ilmiy va amaliy asosni yaratadi.

Mavzu muhokamasi. Qonun ta’lim tizimini bosqichma-bosqich tartiblaydi va quyidagi asosiy ta’lim turlarini belgilaydi:

- **maktabgacha ta’lim va tarbiya;**
- **umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;**
- **kasb-hunarga yo‘naltirilgan ta’lim;**
- **oliy ta’lim va undan keyingi ta’lim;**
- **mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;**

- **eksterrnat, masofaviy ta'lim va boshqa zamonaviy shakllar.**

Bu ta'lim turlari ta'lim jarayonini uzluksiz va kompleks tarzda tashkil etish hamda raqamli hamda innovatsion metodlar bilan boyitish imkonini beradi.

Qonun **davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini** belgilaydi, ular orqali ta'lim mazmuni, sifati, shart-sharoitlari va o'quv natijalari standartlashtiriladi. Shu bilan birga, ta'lim muassasalari faoliyati davlat tomonidan nazorat qilinadi va attestatsiya, akkreditatsiya kabi mexanizmlar orqali natijalar tahlil qilinadi.

Qonun ta'lim tizimida davlat boshqaruvi organlari, ilmiy-pedagogik muassasalar va boshqa tashkilotlarning vakolatlarini tartibga soladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar - o'quvchilar, pedagoglar, ota-onalar va boshqa manfaatdor subyektlarning huquq va majburiyatlari qonunda aniq ko'rsatilgan.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun - bu milliy ta'lim siyosatini shakllantiruvchi, ta'limga kirish imkoniyati, sifat nazorati va pedagogik jarayon tamoyillarini belgilovchi huquqiy asosiy hujjatdir. U ta'lim mazmuni, ta'lim turlari, ta'lim olish huquqi hamda ta'lim sifatini kafolatlash bo'yicha kompleks yondashuvni nazarda tutadi, milliy ta'limni global pedagogik standartlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, integratsiya jarayoni milliy ta'lim dasturining o'ziga xosligini saqlagan holda global pedagogik tendensiyalarni tatbiq etish imkonini beradi, bu esa ta'lim islohotlarining **strategik maqsadi – sifatli ta'lim, pedagogik innovatsiyalar va kompetensiyaviy rivojlanish** bilan uyg'unlashuvini ta'minlaydi. Xalqaro tajribalar va milliy ta'lim dasturini integratsiya qilish milliy ta'lim tizimida innovatsion paradigmani joriy etish, pedagogik jarayonni modernizatsiyalash o'quvchilarning global va milliy kompetensiyalarini uyg'un rivojlantirishning o'ziga xos strategik ahamiyatini bildiradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari bir qator afzalliklarni yuzaga keltirmoqda. Birinchi navbatda, islohotlar ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Yangi o'quv dasturlari va kompetensiyaga asoslangan yondashuv orqali o'quvchilar mustaqil fikrlash, tahlil qilish va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, darslarda interaktiv metodlar, keys-stadi, guruhli ishlar va raqamli platformalar qo'llanilmoqda, bu esa o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Ikkinchidan, islohotlar o'qituvchilarning ijtimoiy maqomini oshirishga xizmat qilmoqda. Ularning maoshlari bosqichma-bosqich ko'tarildi, malaka oshirish va attestatsiya tizimi takomillashtirildi. Bu qadamlar pedagoglarni kasbiy rivojlanish va o'quv jarayonida faol ishtirok etishga rag'batlantiradi. Shu bilan birga, elektron jurnallar va test tizimlari orqali baholashda shaffoflik va adolat ta'minlanmoqda, bu o'quvchilar va ota-onalar uchun ham samaralidir.

Biroq, ushbu o'zgarishlar ayrim muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Masalan, ayrim maktablarning moddiy-texnik bazasi yetarli darajada emas, internet va laboratoriya jihozlari kam. Bundan tashqari, ayrim o'qituvchilar yangi metod va texnologiyalarni o'zlashtirishda qiyinchilikka duch kelmoqda, an'anaviy usullardan voz kechilmagan. Shuningdek, o'quv yuklamasi hajm kattaligi sababli o'quvchilar charchoq va qiziqish pasayishi bilan izohlash mumkin. Shu bilan birga, nazariy bilim ko'p, amaliyot kamligi sababli ham o'quvchilar hayotiy ko'nikmalarni o'zlashtira olmaydi, mustaqil qaror qabul qilishda qiynalishi mumkin. Ota-onalar va maktab hamkorligi sust bo'lishi ham tarbiya va ta'limda uzluksizlikka olib keladi. Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim islohotlari samarali natijalar bersa-da, ularni to'liq amalga oshirish va muammolarni bartaraf etish uchun moddiy-texnik baza, pedagoglar tayyorgarligi va ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim (1.3.2-rasmga qarang).

1.3.2-rasm.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim islohotlarining afzalliklari va muammolari

Afzalliklari	Mavjud muammolari
Ta'lim sifati oshmoqda: yangi o'quv dasturlari, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, mustaqil fikrlash va tahlil ko'nikmalari rivojlanmoqda	Moddiy-texnik baza yetarli emas: ayrim maktablarida jihozlar va internet tezligi past
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etildi: interaktiv metodlar, AKT va raqamli platformalar	O'qituvchilarning tayyorgarligi yetarli emas: yangi metodlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklar, an'anaviy usullardan to'liq voz kechilmagan
O'qituvchilarning ijtimoiy maqomi oshdi: maoshlar ko'tarildi, malaka oshirish tizimi yangilandi	O'quv yuklamasining og'irligi: darsliklar hajmi katta, o'quvchida charchoq va qiziqish pasayishi
Ta'limda adolat va shaffoflik kuchaydi: elektron jurnallar va baholash tizimi	Ta'lim mazmuni va amaliyot o'rtasidagi uzilish: nazariy bilim ko'p, amaliyot kam, hayotiy ko'nikmalar yetarli shakllanmaydi

O'quvchilarning qobiliyatlari rivojlanmoqda: STEAM, IT, chet tillari va Prezident maktablari	Ota-onalar va maktab hamkorligi sust: ota-onalar ta'lim jarayoniga kam jalb etilgan
--	---

Ta'lim tizimini modernizatsiyalash, raqamlashtirish, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish hamda xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha Prezident farmonlari va qarorlari qabul qilinmoqda. Ushbu hujjatlar qonunning amaliy ijrosini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha mexanizmlarni belgilaydi, masalan - ta'lim boshqaruvi tizimini yangilash va innovatsiyalarni tatbiq etish.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari ta'limning aniq yo'nalishlarini tartibga soladi - masalan, ta'lim muassasalari faoliyati, o'qituvchilarning malaka oshirish tartibi, maktabgacha va umumta'lim tashkilotlarida innovatsiyalarni tatbiq etish bo'yicha nizomlar.

Ta'lim tizimining ayrim yo'nalishlarini - masalan, inklyuziv ta'lim va maxsus ehtiyojga ega bolalar ta'limini - tartibga soluvchi maxsus qonunlar ham mavjud. Bu qonunlar ta'lim huquqini yanada kengaytiradi va jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng ta'lim imkoniyatlarini kafolatlashga xizmat qiladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar ta'lim jarayonini **bir xilda va sifatli boshqarishga** imkon beradi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'limning barcha darajalarida (maktab, kasb-hunar, oliy ta'lim va qayta tayyorlash) asosiy me'yorlarni belgilaydi va bu orqali sifatni kafolatlaydi.

Qonunlar orqali o'quvchilar, talabalar va pedagoglarning huquqlari ham mustahkamlanadi. Bu huquqiy kafolatlar ta'limning barqarorligini ta'minlaydi va jamiyatda ta'lim tizimiga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Xulosa. Ta'lim islohotlari doirasida normativ-huquqiy hujjatlar xalqaro me'yorlar va standartlar bilan mos ravishda yangilanmoqda, bu esa Respublikamizda ta'lim tizimini global ta'lim maydoniga integratsiya qilish imkonini beradi. Masalan, qonunchilikda o'quvchilarning teng huquqlari va inklyuziv ta'lim prinsiplari BMT va UNESCO me'yorlariga moslashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jakbarov, S. "A Continuous Education System Is the Key to the Stable Development of the New Uzbekistan." Institute of Legislation and Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan (2023).
2. Porsaeva, M. M. "Inclusive Education in Uzbekistan: Legal Framework, Institutional Progress and International Comparison." Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (2025).
3. "Talim, fan va ishlab chiqarish integraciyalashtiriladi." NORMA.UZ (2024).
4. "The government of Uzbekistan and partners commit to education reforms in 2023-2026." UZA News (2023).